



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

2026 yil “24” aprel

145-son

Toshkent sh.

### **Tibbiy faoliyat xavfsizligini ta’minlash, ichki sifat nazoratini tashkil etish va o‘tkazish talablarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘tkir yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2026-yil 20-yanvardagi PQ–20-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli topshirig‘iga muvofiq davlat statsionar tibbiyot muassasalarida tibbiy yordam sifati ustidan doimiy ichki nazorat tizimini tashkil etish hamda tashqi klinik audit va sifat nazorati mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek klinik protokollar va bemorlar marshrutiga rioya etilishini baholash uchun nazorat va monitoring tizimini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

davlat statsionar tibbiyot muassasalarida tibbiy faoliyat xavfsizligini ta’minlash va ichki sifat nazoratini tashkil etish va o‘tkazishga oid talablar to‘g‘risidagi **nizom** 1-ilovaga;

davlat statsionar tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan ichki sifat nazorati komissiyasining **namunaviy tarkibi** 2-ilovaga;

davlat statsionar tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan ichki sifat nazorati komissiyasining **tekshirish rejasi** 3-ilovaga;

davlat statsionar tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan ichki sifat nazorati komissiyasining **tekshirish dalolatnomasi** 4-ilovaga;

bemorlar va fuqarolar tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatdan **qoniqish savolnomasining** namunasi 5-ilovaga;

sifat mezonlarini **baholash kartalari** namunalari 6-muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

Davlat statsionar tibbiyot muassasalarida ichki sifat nazorati komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tomonidan rejali va rejadan tashqari (maqsadli) o‘rganishlar davomida fuqarolar (bemorlar) hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan va (yoki) zarar yetkazish xavfi aniqlangan holatlarda muassasa rahbari tomonidan Nazorat inspeksiyasi va JST masalalari boshqarmasining hududiy shu‘balariga tezkor ma’lumot taqdim qilinishi shartligi;

Komissiyasining a'zolari o'tkazilgan har bir nazorat tadbirlari natijasi bo'yicha ma'sul va javobgar ekanligi;

davlat statsionar tibbiyot muassasalari rahbarlari Komissiyasining to'liq faoliyat yuritishini ta'minlashi hamda nazorat tadbirlari davomida Komissiya a'zolari faoliyatiga qarshilik ko'rsatmasligi;

**har oy yakuni** bo'yicha Komissiya tomonidan Nazorat inspeksiyasi va JST masalalari boshqarmasiga ma'lumot taqdim etib borilishini ta'minlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari, barcha ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari rahbarlari va respublika darajasidagi davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari **bir hafta** muddatda:

barcha davlat statsionar muassasalarda Komissiya faoliyatini mazkur buyruqning 1-ilovasidagi Nizomga asosan tashkil etish choralarni ko'rsin, bunda:

har bir statsionar tibbiyot muassasalarida alohida Komissiya tuzish va mas'ul xodimlar belgilansin;

bemorlar va fuqarolar tomonidan ko'rsatilgan tibbiy xizmatdan qoniqish savolnomasi hamda sifat mezonlarini baholash kartalarining namunasi asosida har bir bo'lim kesimida kasallik nozologiyasidan kelib chiqib o'z savolnomasi va sifat mezonlarini baholash kartalarini tasdiqlasin;

tasdiqlangan Komissiya tarkibini Nazorat inspeksiyasi va JST masalalari boshqarmasiga taqdim etsin.

4. Nazorat inspeksiyasi va JST masalalari boshqarmasi (Sh.Gulyamov):

davlat statsionar tibbiyot muassasalarida tashkil etilgan Komissiya xodimlariga ichki nazorat tadbirlarini to'g'ri tashkil etish va ularni mazkur yo'nalish bo'yicha malakasini oshirib borish;

Komissiya ish faoliyatini muvofiqlashtirish, doimiy nazoratini olib borish hamda ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatsin.

5. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov

JDN6688

JDN6688

JDN6688

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil \_\_\_ - apreldagi \_\_\_\_\_-son buyrug'iga  
1-ilova

**Davlat statsionar tibbiyot muassasalarida tibbiy faoliyat  
xavfsizligini ta'minlash va ichki sifat nazoratini tashkil etish  
va o'tkazishga oid talablar to'g'risidagi**

**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu nizom Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi davlat statsionar tibbiyot muassasalarida tibbiy faoliyatning sifatini ichki tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

Ichki sifat nazorati va tibbiy faoliyat xavfsizligi fuqarolarning zarur hajmdagi tibbiy yordam olish huquqlarini ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish tartib-qoidalari, tibbiy yordam ko'rsatish standartlari va klinik tavsiyalar asosida, shuningdek tibbiy faoliyatning sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat statsionar tibbiyot muassasalarida ichki sifat nazorati komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat statsionar tibbiyot muassasalarida tashkil etiladi va bevosita davolash-profilaktika muassasalari rahbarlariga bo'ysunadi.

Komissiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek Sog'liqni saqlash vazirining buyruqlariga hamda mazkur nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Komissiya raisi etib davolash-profilaktika muassasalari rahbarlarining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalar kesimida bo'lim mudirlari hisoblanadi;

Komissiya a'zolari etib barcha bo'lim boshliqlari, katta hamshiralari, dorixona mudiri, buxgalter, bosh/katta hamshira, shifoxona epidemiologi (agar mavjud bo'lsa), yetuk shifokor mutaxassislar tayinlanadi.

Asosiy tushunchalar:

**standart** – Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan normativ-huquqiy hujjat bo'lib, turli xil kasalliklarni davolashda shifokorning harakatlari algoritmini hamda sog'liqni saqlash sohasidagi tibbiy va farmatsevtik faoliyatni standartlashtirishni ta'minlash qoidalarini, umumiy tamoyillarini va xususiyatlarini belgilaydi;

**klinik protokollar** – ma'lum bir kasallikni profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va reabilitatsiyasida qo'llaniladigan ilmiy jihatdan tasdiqlangan, dalillarga asoslangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatdir shu jumladan kasallikning kechishini, asoratlar va hamroh kasalliklarining mavjudligini hisobga olgan holda tibbiyot xodimining harakatlar ketma-ketligini belgilaydi;

**tibbiy yordam** – aholi salomatligini saqlash va tiklashga, shu jumladan dori-darmonlar bilan ta'minlashga qaratilgan tibbiy xizmatlar majmui;

**tibbiy xizmatlar** – ma’lum bir shaxsga nisbatan profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya jarayonlarida sog‘liqni saqlash subyektlarining harakatlari;

**davolangan holat** – shifoxonaga yotqizilgan vaqtdan boshlab statsionar va (yoki) statsionar o‘rnini bosuvchi sharoitlarda bemorga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar to‘plami;

**tibbiy yordamning sifati** – ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning standartlarga muvofiqligi darajasi;

**tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi xato** – fuqarolarga (bemorlarga) tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish tartibini buzish, standartlarga rioya qilmaslik va klinik tavsiyalardan asossiz chetga chiqish natijasida salbiy oqibatlarga olib keladigan holat;

**tibbiy xizmatlar sifatini tekshirish** – tibbiy xizmatlarning samaradorligi, to‘liqligi va standartlarga muvofiqligini aks ettiruvchi, tibbiy xizmatlarning sifati to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy, tahliliy va amaliy tadbirlar majmui;

**klinik audit** – bu olib borilgan davolash va diagnostika jarayonlarini amaldagi standartlarga muvofiqligi bo‘yicha o‘tkazilgan batafsil retrospektiv va (yoki) joriy tahlildir;

**retrospektiv tahlil** – tibbiy yordam olgan bemorlarning tibbiy hujjatlarini o‘rganish orqali o‘tkazilgan tahlil.

2. Tibbiyot muassasasining turi, tibbiy yordam ko‘rsatish turlari, shartlari hamda tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun ko‘rsatilgan xizmatlar ro‘yxatini hisobga olgan holda, ichki nazoratni tashkil etish va o‘tkazish, quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

tibbiy hujjatlarni belgilangan talablar bo‘yicha yuritilishi hamda undagi tushunchalarni to‘g‘ri talqin qilinishi va bajarilishiga;

fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi xavflarni aniqlash va oldini olish, ularning yuzaga kelish oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha tibbiy faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan yondashuvlarni takomillashtirish;

tibbiy faoliyatni amalga oshirishda fuqarolarning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquqlariga rioya etilishini ta’minlash va baholash;

tibbiy yordam ko‘rsatish tartib-qoidalarini, laboratoriya, instrumental, patologoanatomik va boshqa diagnostika usullarini o‘tkazish qoidalarini ta’minlash va baholash;

aholini profilaktik tibbiy ko‘riklari, surunkali kasalliklari bor bemorlarni tibbiy ko‘riklardan o‘tkazish tartib-qoidalariga rioya etilishini ta’minlash va baholash;

tibbiyot xodimlari va tibbiyot muassasalari rahbarlari tomonidan o‘zlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qo‘yilgan talablarga rioya etishlarini ta’minlash va baholash;

ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning standart va klinik protokollar asosida olib borilishini ta’minlash va baholash, shuningdek ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamni standart va klinik tavsiyalarga asosan olib borilmaganlik sabablarini o‘rganish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tibbiy yordam ko‘rsatishdagi xato va kamchiliklarni ogohlantirish hamda oldini olish natijasida:

fuqarolarning zarur hajmdagi va sifatli tibbiy yordam olish huquqlari ta’minlanadi; ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam bemorning sog‘lig‘iga mos kelmasligi natijasida a’zo va

(yoki) tizimlarning zararlanishi yoki ularning vazifalarini buzilishi oqibatida kasallik yoki uning asorati kelib chiqishini oldini olishga;

bemorga tibbiy yordam ko'rsatish tartib-qoidalariga muvofiq, tibbiy yordam ko'rsatish standartlari va klinik protokollar asosida zarur bo'lgan profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazishga yoki noto'g'ri bajarilishini oldini olishga;

tibbiy faoliyatga yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xatoliklarning oqibatlari va sabablarini bartaraf etish choralarini ko'rishga erishiladi.

3. Ichki nazorat sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalari tomonidan ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Ichki nazoratni tashkil etish va o'tkazish uchun tibbiyot muassasasi rahbaring davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari mas'uldir va komissiya raisi hisoblanadi.

5. Tibbiyot muassasasi rahbarining buyrug'i bilan lavozim majburiyatlaridan kelib chiqib, komissiya raisi va muassasa xodimlari (bo'lim boshliqlari, katta hamshiralari, dorixona mudiri, buxgalter, bosh/katta hamshira, shifoxona epidemiologi (agar mavjud bo'lsa), yetuk shifokor mutaxassislar)dan iborat Komissiya tashkil etiladi va tibbiy faoliyatning ichki sifat nazorati amalga oshiriladi.

6. Tibbiyot muassasasi ushbu Nizom asosida ichki nazoratni tashkil etish va o'tkazish maqsadida tibbiy faoliyat sifati va xavfsizligi ustidan ichki nazoratni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi muassasa ichki Nizomini ishlab chiqadi va quyidagilarni tartibga soladi:

muassasada ichki nazoratni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha komissiya vazifalarini;

ichki nazoratning o'tkazish maqsadi va muddatlarini;

ichki nazoratni o'tkazish uchun asoslarni;

ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini;

ichki nazorat natijalarini qayd etish va tahlil qilish tartibini;

tibbiy faoliyat sifati va xavfsizligini boshqarish maqsadida ichki nazoratning o'rganish natijalaridan foydalanish tartibini.

7. Tibbiyot muassasasi rahbarining qarori bilan boshqa tashkilotlardan mutaxassislar ichki nazorat tadbirlarini o'tkazish uchun jalb qilinishi mumkin.

## **II. Ichki sifat nazorati va tibbiy faoliyat xavfsizligini amalga oshirish**

8. Ichki nazorat quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

tibbiyot muassasasi va uning tarkibiy bo'linmalarining tibbiy faoliyat sifati va xavfsizligini rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan baholash;

tibbiy xizmatlar iste'molchisi (bemor va fuqarolar) tomonidan ularga ko'rsatilgan tibbiy xizmatdan qoniqish savolnomasi olish (5-ilova);

tibbiyot muassasasining tibbiy faoliyati sifati va xavfsizligini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish;

tibbiy faoliyatni amalga oshirishdagi nomaqbul hodisalarni (bemorlar va (yoki) tibbiyot xodimlarining hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish yoki zarar

yetkazish xavfini tug'diradigan, shuningdek tibbiy yordam ko'rsatish muddatining uzaytirilishiga olib keladigan holatlar) tahlil qilish;

tibbiy yordam ko'rsatish standartlarini hisobga olgan holda va klinik protokollar asosida dori vositalari va tibbiy buyumlar muassasada mavjudligini monitoring qilish;

davolanish davomida dori vositalarini, tibbiy jihozlarni qo'llashda kutilmagan nojo'ya reaksiya va ta'sirlar, dori vositalarining samarasizligi, shuningdek dori vositalarini va tibbiy jihozlarni qo'llashda inson hayoti yoki sog'lig'iga tahdid soluvchi boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

tibbiyot xodimlari o'rtasida ma'lumoti bo'yicha hujjatlar va mutaxassislik guvohnomasi mavjudligini nazorat qilish.

9. Tibbiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash va ichki sifat nazoratini (klinik audit, retrospektiv tahlillar bilan) o'tkazish:

o'z-o'zini nazorat qilish;

rejali;

maqsadli (rejadan tashqari) shakllarda o'tkaziladi.

Ichki sifat nazorati o'z-o'zini nazorat qilish orqali quyidagi darajalarda o'tkaziladi:

har bir tibbiyot xodimi o'zini-o'zi va tarkibiy bo'linma darajasida;

tibbiyot xodimi darajasida ichki sifat nazoratini o'tkazish, har bir davolangan holat bo'yicha shifokor va hamshiralar tomonidan doimiy o'tkaziladi (o'zini-o'zi nazorat qiladi);

tarkibiy bo'linma darajasidagi ichki sifat nazoratini o'tkazish bo'limning joriy faoliyati doirasida uning rahbari tomonidan doimiy amalga oshirib boriladi.

O'rta tibbiyot xodimlarining ishini tarkibiy bo'linma darajasida tekshirish katta hamshira tomonidan amalga oshiriladi va bu tibbiy hujjatlarni to'liq va o'z vaqtida yuritilishi shuningdek shifokor tavsiyalarini to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bilan baholanadi.

10. Rejali tekshiruvlar tibbiyot muassasasining rahbari tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga (3-ilova) muvofiq barcha tarkibiy bo'linmalarda chorakda kamida bir marta, ambulator yordam ko'rsatadigan muassasalarda oyiga kamida 1% qatnovlar bo'yicha, tez tibbiy yordam tashkilotlarida bajarilgan chaqiruvlarning tanlov asosida xar chorakda kamida 1% miqdorida o'tkaziladi.

11. Maqsadli (rejadan tashqari) tekshirishlar:

muassasaning tibbiy faoliyat sifati va xavfsizligini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarning salbiy dinamikasi mavjud bo'lganda hamda rejali tekshirish natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni ijrosini o'rganish uchun (o'ta qo'pol xato va kamchiliklar aniqlanganda 3 kun ichida, boshqa hollarda 10 kun davomida);

tibbiy yordamning sifati, shuningdek muassasada tibbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha fuqarolar (bemorlar)ning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan holatlar va (yoki) zarar yetkazish xavfi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shikoyatlar kelib tushganida;

Quyidagi barcha hollarda:

bir oy ichida bir bemorni huddi shu kasallik tufayli takroriy rejali kasalxonaga yotqizilgan holatlarda (kasallikning o'tkir davri va asoratlari bilan yotqizilgandagi holatlar bundan mustasno);

davolashning davomiyligini ortishi yoki juda ham kamayishi (standartlarga asoslanib);

asossiz gospitalizatsiyaga shubha bo'lganida;

nozokomial infeksiya va tibbiy aralashuv natijasida yuzaga kelgan asoratlar mavjud bo'lganida;

bemorning vafoti bilan bog'liq holatlarda;

klinik va patologoanatomik (sud-tibbiy ekspertiza) tashxislardagi nomutanosibliklarda.

Maqsadli (rejadan tashqari) tekshirishlar Komissiya (komissiya raisining ruxsati bilan, bunda tungi reytda o'tkazish to'g'risida komissiya raisiga bildirgi yoziladi) a'zolari tomonidan tungi reydlar o'tkazish orqali xam o'tkaziladi. Bundan asosiy maqsad muassasaning tungi vaqtlardagi faoliyatini o'rganish va baholash.

**Ambulator yordam** ko'rsatadigan muassasalarda quyidagi barcha holatlarda:

onalar o'limi kuzatilganida;

bolalarning uydagi o'lim holatlarida;

mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolarning turli xil kasalliklardan uydagi o'lim holatlarida;

kech emlash yoki yuqumli kasalliklarga qarshi emlash o'tkazilmagan holatlarda;

saraton va sil kasalligining o'tkazib yuborilgan, kech aniqlangan shakllarida;

mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolarga ilk nogironlik belgilanganida;

homiladorlikning asoratlari kuzatilgan holatlarda.

**Tez tibbiy yordam** tashkilotlarida quyidagi barcha holatlarda:

bir kun ichida bir bemorning ayni kasalligi tufayli bo'lgan takroriy chaqiruvlarda.

12. Tekshiruv maqsadidan kelib chiqib, tekshiruvlar tasodifiy tanlab olish va (yoki) maqsad jihatdan bir xil holatlar bo'yicha o'tkazish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

13. Tekshirish uchun yo'nalishlarni tanlash tibbiyot muassasasi va uning tarkibiy bo'linmalarining tibbiy faoliyatining sifati va xavfsizligini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari asosida amalga oshiriladi.

14. Rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlar, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam holatlarini tahlil qilish, muassasaning tibbiy faoliyati sifati va xavfsizligini baholash, shu jumladan bemorga tibbiy yordam ko'rsatishda bemor holatining og'irlashuviga, mavjud bo'lgan boshqa kasalliklarini qo'zg'alishiga, yangi kasalliklarni rivojlanishiga, nogironlikka olib kelishiga hamda bemorning vafot etishiga olib keluvchi salbiy oqibatlarining kelib chiqishini baholash shuningdek muassasa resurslaridan samarasiz foydalanish holatlarini, bemolarning tibbiy yordamdan qoniqish hosil qilish darajasini o'rganish uchun amalga oshiriladi.

15. Rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlarning davomiyligi komissiya raisi tomonidan tekshiruv maqsadi va muassasa (tarkibiy bo'linma) faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi, lekin 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

16. Rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlarni o'tkazishda komissiya quyidagi huquqlarga ega:

muassasa tarkibiy bo'linmalari faoliyati to'g'risida ma'lumot olish, to'plash va tahlil qilish;

ichki nazoratning maqsad va vazifalari bilan bog'liq tibbiy hujjatlar bilan tanishish, ushbu hujjatlarning nusxalarini olish, zarur holatlarda foto va videotasvirga olish;

bemorlar va (yoki) ularning oila a'zolari shuningdek fuqarolarning shikoyatlari va murojaatlarini (agar mavjud bo'lsa) o'rganish natijalari bilan tanishish;

muassasaning tarkibiy bo'linmalariga, shuningdek binolar, inshootlar, ishlatilayotgan tibbiyot uskunalari va transport vositalariga to'siqsiz kirish;

kerakli o'rganish, tekshiruv va tahlillar o'tkazishni tashkil qilish.

17. Muassasaning turiga, tibbiy yordam ko'rsatish turlari, sharoitlari va shakllariga, muassasa nizomida ko'rsatilgan ishlar (xizmatlar) ro'yxatiga qarab, tibbiy faoliyatning ichki sifatini nazorat qilish va xavfsizligini ta'minlash doirasida amalga oshiriladigan rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlar tibbiy faoliyatni baholashni nazarda tutuvchi quyidagi ko'rsatkichlar:

1) muassasada tibbiy faoliyatni tashkil etishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi;

2) muassasada tibbiy yordam ko'rsatish standartlari va klinik protokollarga asoslangan xolda laboratoriya, instrumental, patologoanatomik va boshqa turdagi diagnostik tekshiruvlar o'tkazish, tibbiy ko'riklar o'tkazish, tibbiy yordam ko'rsatish tartib-qoidalariga muvofiq tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

3) barcha tibbiyot muassasalari tez tibbiy yordam, shu jumladan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadigan muassasalar bilan hamkorlikda ishlashini ta'minlash (barcha tibbiyot muassasalaridan tez tibbiy yordam va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadigan muassasalarga shifoxonada mavjud bo'sh o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotni uzatish);

4) bemorni tashish paytida xavfsiz sharoitlarga rioya qilish (muassasa ichida va (yoki) boshqa muassasaga o'tkazishda);

5) barcha bosqichlarda (bemorni boshqa muassasaga o'tkazishda, uyiga javob berishda, navbatchilikni topshirish va boshqa holatlarda) tibbiy yordamning uzluksizligini ta'minlash;

6) tibbiy yordam ko'rsatishning usullari, tibbiy aralashuvning turlari, uning oqibatlari, shuningdek tibbiy aralashuvning kutilayotgan natijalari to'g'risida tibbiyot xodimi tomonidan fuqaroning yoki uning qonuniy vakilining ixtiyoriy roziligini ta'minlash (qonunchilikda belgilangan tartibda).

7) muassasaning qabul bo'limi ishini tartibga soluvchi qoidalarining mavjudligi, shu jumladan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda (tarkibiy bo'linmalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda);

8) bemor holatining og'irligiga va zarur tibbiy aralashuvlar hajmiga qarab, bemorlarni qabul qilish va davolashda saralash (traj) ishini to'g'ri tashkil qilish;

9) bemorlarni qabul qilish va (yoki) davolashda, shuningdek tibbiy yordam ko'rsatishning barcha bosqichlarida o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

10) qabul bo'limi hamda tarkibiy bo'linmalarda tibbiyot xodimlarini bemorlarga, palatalarga chaqirish imkoniyatini yaratish;

11) fuqarolarga (bemorlarga) birinchi yordam ko'rsatish uchun muassasalarda dori-darmonlar va tibbiy asbob-uskunalar mavjudligi va tibbiyot xodimlarini muntazam ravishda birinchi yordam ko'rsatishga o'qitishni ta'minlash;

12) muassasa turi va shaklidan kelib chiqib, statsionar sharoitda tibbiy yordam ko'rsatadigan muassasalarda kechayu kunduz laboratoriya va instrumental tekshiruvlar o'tkazish imkoniyatini ta'minlash;

13) klinik-diagnostik laboratoriyasining (bo'limining) xavfsiz ishlashini tashkil etish, namunalarni identifikatsiya qilish tizimining mavjudligi;

14) tibbiy faoliyatni amalga oshirishda tibbiy maxfiylikka (shifokor siri), shu jumladan muassasaning axborot tizimlarida ishlatiladigan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etilishini ta'minlash;

15) tibbiy yordam ko'rsatishda bemorlarning huquqlarini ta'minlash, muassasada bemorlar uchun qulay sharoitlarni yaratish, shu jumladan bemorlarning yaqinlari uchun kutish xonalarini tashkil etish;

16) dori vositalaridan xavfsiz foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan:

dori vositalarining yaroqlilik muddatlarini nazorat qilishni ta'minlash;

maxsus saqlash sharoitlarini talab qiladigan dori-darmonlar va umuman dori-darmonlarni saqlanishi ustidan nazorat o'rnatish;

dori-darmonlarni maxsus jihozlangan xonalarda va (yoki) saqlash joylarida saqlash;

bemorlarga ko'rsatma bo'yicha dori-darmonlarni buyurish talablariga rioya qilish, shuningdek dori-darmonlarni qo'llashda yuzaga keladigan xavflarni hisobga olish (allergik anamnezi, dori-darmonlarning o'zaro ta'siri va mos kelish xususiyatlari), tibbiy hujjatlarga tegishli ma'lumotlarni kiritish bilan;

dori vositalarining yozib berishda belgilangan tartibda va yagona retsept varaqalaridan foydalanishni nazorat qilish;

ijtimoiy reyestrda turadigan fuqarolar uchun dori-vositalari, tibbiy buyumlar hamda sarflov vositalari bilan ta'minlashni tashkil etish (onkologik kasalliklarga chalinganlar, sil kasalligiga chalinganlar, moxov kasalligiga chalinganlar, endokrinologik kasalliklarga (qandli va qandsiz diabetga) chalinganlar, ruhiy kasalliklarga chalinganlar, OIV kasalligini yuqtirganlar, yurak klapanini protezlash va organlarni ko'chirish yuzasidan operatsiya qilingan shaxslar, dasturli gemodializ oluvchi bemorlar, O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar, 1941-1945-yillardagi urush oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar va urush qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1941-1945 yillardagi urush mehnat fronti qatnashchilari, Chernobil AESi falokatini tugatishda ishtirok etgan shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironligi bo'lgan shaxslar, baynalmilalchi jangchilar, harbiy xizmatni yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida o'tagan nafaqa yoshidagi shaxslar).

17) epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan:

tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarning oldini olish (nozokomial infeksiyalar);

mikrobiologik o'rganishlar o'tkazish (nozokomial infeksiyalarga shubha bo'lgan va (yoki) yuzaga kelish holatlarida);

tibbiy asboblarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish ishlarini samarali tashkil etish;

epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash (dezinfeksiyalovchi moddalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, ularning muassasada mavjudligini nazorat qilish; dezinfeksiyalovchi vositalarni va dezinfeksiya usullarini oqilona tanlash, maishiy va tibbiy chiqindilarni yo'q qilinishi ustidan nazorat qilish);

San QvaM talablariga muvofiq alohidalashni (izolyatsiyani) talab qiladigan bemorlarga (havo orqali yuqadigan infeksiyalar, ayniqsa o'ta xavfli infeksiyalar) tibbiy yordam ko'rsatish uchun sharoitlar yaratish;

tibbiyot xodimlari tomonidan gigiyena qoidalariga rioya qilish, qo'llarni yuvish va zararsizlantirish uchun maxsus jihozlangan joylarning mavjudligi;

tibbiyot xodimlariga tibbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida infeksiyalarning yuqishini oldini olish (shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish);

kasalliklarni davolashda antibakterial preparatlardan oqilona foydalanish;

infeksiya aniqlangan holatda epidemiyaga qarshi tadbirlarni vaqtida va sifatli o'tkazish;

18) statsionar sharoitda davolanayotgan bemorning muassasada bo'lish muddatini (standart va klinik protokollarda ko'rsatilgan muddatlarda davolanishi) o'rganish;

19) bemorning tibbiy hujjatlardagi shaxsiy ma'lumotlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarga (famiyasi, ismi, otasining ismi, jinsi, yoshi) muvofiqligini tasdiqlash;

20) tibbiy asboblardan xavfsiz foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ya'ni tibbiy asboblardan texnik hujjatlari va yo'riqnomalariga muvofiq foydalanish (ularga muvofiq tibbiy asboblarni saqlash, tashish, o'rnatish, qo'llash, ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, yo'q qilish va h.k.);

muassasa xodimlarini tibbiy asboblardan foydalanish bo'yicha o'rgatish va o'qitish;

21) standart va klinik protokollar (tavsiyalar) asosida bemorlarda jarrohlik aralashuvlari chora-tadbirlarini belgilash (bemorni amaliyotga tayyorlash, bemorni amaliyot davrida, uyg'onish xonasida va amaliyotdan keyingi davrda, bog'lovlar vaqtida) va ular bilan bog'liq xavflarning oldini olish;

22) traxeostomik va endotraxeal naychalarni nazorat qilish;

23) kasallik va (yoki) tibbiy aralashuv natijasidagi og'riqsizlantirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish (og'riq qoldiruvchi dorilar, giyohvandlik vositalari va psixotrop dorilar bilan);

24) qon va (yoki) uning tarkibiy qismlarini muassasada ishlatilishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan:

qon va (yoki) uning tarkibiy qismlarini quyish (transfuziya) natijasida kelib chiqadigan reaksiyalar va asoratlarning oldini olish;

qon va (yoki) uning tarkibiy qismlarini quyish (transfuziya) natijasida kelib chiqqan reaksiya va asoratlar bo'yicha tahlil o'tkazish;

25) bemorlar va muassasa xodimlari uchun xavfsiz muhitni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan:

muassasaning tarkibiy bo'linmalarini oqilona rejalashtirish (ularni bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtirish, qabul bo'limidagi ketma ketlikka rioya qilish, tarkibiy bo'linmalar ichida xonalarni to'g'ri rejalashtirish, xonalarda jihozlarni joylashtirishga qo'yilgan talablarga rioya qilish);

shikastlanish va kasbiy kasalliklar xavfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

tibbiy asboblardan shikastlanishdan himoyalashni tashkil qilish;  
muassasani tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan uskunalardan bilan jihozlash;

muassasaning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

muassasani qo'riqlash va xavfsizligini ta'minlash (muassasa va uning tarkibiy bo'linmalariga begona shaxslar (bemorlardan tashqari)ning kirishlarini taqiqlash, tibbiyot xodimlariga bemorlar yoki tashrif buyuruvchilar tomonidan hujum va tahdidlarni oldini olish choralarini ko'rish);

turli tahdid va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik choralariga rioya qilish;

muassasa hududiga bemorlarni tibbiy tashish va evakuatsiya qilish uchun transport vositalarini to'siqsiz kirishini ta'minlash;

muassasada hududida xavfsizlik buzilishining barcha holatlari to'g'risida ma'lumot to'plash va tahlil qilish;

26) bemorlarni parvarishlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan:

yotoq yaralar paydo bo'lish xavfini baholash;

yotoq yaralarining oldini olish va davolash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yotoq yaralari paydo bo'lgan holatlarni tahlil qilish;

drenaj va stomalarni parvarish qilish;

bemorlarni to'g'ri ovqatlantirish, shu jumladan zond bilan oziqlantirish;

27) muassasa tibbiyot xodimlari tomonidan yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish, bemorlarni yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish usullari, sog'lom turmush tarzi asoslari to'g'risida xabardor qilish.

28) onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish, shu jumladan:

onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun skrining ishlarini vaqtida va to'laqonli o'tkazish;

onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha tibbiyot xodimlari uchun doimiy treninglar o'tkazib borish;

saraton tashxisining o'z vaqtida qo'yilishini nazorat qilish, erta aniqlash samaradorligini, kasallikni davolashni, saraton kasalligiga chalingan bemorlarni dispanser kuzatuvini tahlil qilish;

onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha bemorlar o'rtasida targ'ibot ishlarini o'tkazish;

29) ro'yxatga olish (registratura) ishlarini tashkil etish, bemorlarni shifokor qabuliga oldindan yozilishini ta'minlab berish;

uyga bo'lgan chaqiriqlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish;

fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan kafolatlangan hajmlari doirasida tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlab berish;

tibbiy hujjatlarni saqlash va uni mutaxassis shifokorlarga yetkazib berish tartibini tizimlashtirish;

bemorlarga qulaylik yaratish maqsadida bino va tarkibiy bo‘linmalarni joylanishi bo‘yicha yo‘l ko‘rsatkichlarni joylashtirish, lozim xolda bemor qo‘liga ma‘lumot tariqasida berish;

muassasaning barcha tarkibiy bo‘linmalari bilan ro‘yxatga olish (registratura)ni o‘zaro aloqasini, hamkorlikda ishlashini ta‘minlab berish;

ro‘yxatga olish (registratura) xodimlarining bemorlar bilan muloqoti, bemorlarning shikoyatlari va ziddiyatli vaziyatlarda ular bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirish;

30) bemorlar oqimini boshqarishni tashkil etish, shu jumladan:

bemorlar oqimini rejali, shoshilinch va kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordamga muhtojlar turlariga taqsimlash;

bemorlarni boshqa tibbiyot muassasalariga yuborish;

bemorlarni alohida holatlarda yo‘naltirish: gripp epidemiyasi, boshqa o‘tkir respirator virusli infeksiyalar va boshqa yuqumli kasalliklar paytida;

axborot tizimidan foydalangan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri telefon va boshqa ilovalar orqali shifokor qabuliga yozilish va uni bekor qilish tartibi;

shifokor qabuliga yozuvni tibbiyot muassasasi tashabbusi bilan bekor qilinganida bu bo‘yicha bemorni xabardor qilish tartibi;

31) tibbiyot muassasalarida axborot tizimining ishlashini ta‘minlash;

32) fuqarolarga qulay shaklda, shu jumladan internet orqali muassasada amalga oshirilayotgan ishlar, yangiliklar bilan tanishish, muassasa xodimlari, ularning ma‘lumot darajasi va malakasi to‘g‘risida ma‘lumotlarni olish imkonini berish;

33) profilaktik tibbiy ko‘riklarni tashkil qilish, surunkali kasalliklari bor bo‘lgan bemorlarni va homilador ayollarni kuzatuvga, dispanser nazoratiga olish;

34) profilaktik emlashlar milliy taqvimga va epidemik ko‘rsatkichlar bo‘yicha profilaktik emlashlar taqvimiga muvofiq aholini emlash ishlarini o‘z vaqtida va sifatli tashkil etish ;

35) tibbiyot xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, qayta tayyorlanishi va malakasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

36) tibbiyot muassasasi xodimlarini klinik protokollar (tavsiyalar), tibbiy yordam ko‘rsatish tartiblari, tibbiy yordam standartlari bilan ta‘minlash va ulardagi o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan doimiy tanishtirib borish.

### **III. Tibbiy faoliyat xavfsizligi va ichki sifat nazorati bo‘yicha o‘tkazilgan chora tadbirlarni rasmiylashtirish**

18. Komissiya tomonidan rejalashtirilgan yoki maqsadli (rejadan tashqari)tekshiruvlar natijalari bo‘yicha hisobot tuziladi, shu jumladan aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish, tibbiyot muassasasi va tibbiyot xodimlarining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi (4-ilovalar).

19. Amalga oshirilgan ichki nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha quyidagilar amalga oshiriladi:

bemorlarni tashxislash va davolash jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

tibbiy faoliyatni yanada takomillashtirish uchun o‘tkazilgan ichki nazorat tekshiruvlari natijalarini tahlil qilish;

ichki nazorat natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlash.

20. Komissiya yarim yilda bir marta, shuningdek yil oxirida muassasadagi tibbiy faoliyatning sifati va xavfsizligi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xulosaviy hisobotini tuzadi, aniqlangan xato va kamchiliklar bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzadi va muassasa rahbariga tasdiqlatadi hamda muassasa xodimlariga yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tashkiliy tadbirlar orqali yetkaziladi.

#### **IV. Yakuniy qoidalar**

21. Ushbu Nizom bajarilishi yuzasidan nazorat qilish tibbiyot muassasalari rahbarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Nazorat inspeksiyasi va JST masalalari boshqarmasi va uning hududiy shu'balari tomonidan amalga oshiriladi.

22. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil \_\_\_ - apreldagi \_\_\_\_\_-son  
buyrug'iga  
2-ilova

**Davlat statsionar tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan  
ichki sifat nazorati komissiyasining  
NAMUNAVIY TARKIBI**

T/r	RAYOSAT	
1.	Komissiya raisi	davolash ishlari bo'yicha direktor/bosh shifokor o'rinbosari
2.	Kotib	Bosh/katta hamshira
A'ZOLAR		
3.	Barcha bo'lim mudirlari	
4.	Barcha bo'lim katta hamshiralari	
5.	Dorixona mudiri	
6.	Hisobchi	
7.	Shifoxona epidemiologi (agar mavjud bo'lsa)	
8.	Yetuk shifokor mutaxassislar	

*Izoh: Mazkur ro'yxat bilan tasdiqlangan komissiya tarkibidagi shaxslar boshqa ishga o'tganda, uning o'rniga tayinlangan shaxs komissiya a'zosi hisoblanadi.*

JDN6688

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil \_\_\_ - apreldagi \_\_\_\_\_-son  
buyrug'iga  
3-ilova

**Davlat statsionar tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan ichki sifat  
nazorati komissiyasining  
TEKSHIRISH REJASI**

DP M (tark ibiy bo'li nma nomi )	Oylar											
	Y a n v a r	F e v r a l	M a r t	A p r e l	M a y	I y u n	I y u l	A v g u s t	S e n t a b r	O k t a b r	N o y a b r	D e k a b r
- bo'li m												
- bo'li m												
- bo'li m												

JDN6688

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil \_\_\_ - apreldagi  
\_\_\_\_-son buyrug'iga  
4-ilova

**Davlat statsionar tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan ichki sifat  
nazorati komissiyasining tekshirish  
DALOLATNOMASI**

“ \_\_\_ ” \_\_\_ oy \_\_\_ yil.

Tekshirladigan tarkibiy bo'linma nomi:

\_\_\_\_\_

Tekshiruv natijalari:

(maqsad, reja va yo'nalishidan kelib chiqib Nizom bandlarida ko'rsatilgan har bir holat bo'yicha to'liq o'rganiladi)

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha chora tadbir belgilash:**

№	Aniqlangan xato va kamchiliklar	Bartaraf etish bo'yicha belgilangan chora -tadbirlar	Bartaraf etish muddat	Mas'ul

Taklif: aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan kimga qanday chora ko'rish zarur

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_ (F.I.Sh., imzo)

Kotib: \_\_\_\_\_ (F.I.Sh., imzo)

Komissiya a'zolari:

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh)  
(imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh)  
(imzo)

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil \_\_\_ - apreldagi  
\_\_\_\_\_-son buyrug'iga  
5-ilova

Namuna

### Bemorlar va fuqarolar tomonidan ko'rsatilgan tibbiy xizmatdan qoniqish SAVOLNOMASI

Iltimos, bir necha daqiqa vaqt ajrating va siz muassasamizda olgan tibbiy xizmatning dolzarbligi va sifati haqidagi so'rovnomanini to'ldiring. Sizning fikr-mulohazalaringizni hurmat qilamiz va javoblaringiz kelgusidagi faoliyatimizni yaxshilash uchun ishlatiladi.

1. Muassasamizda Sizga ko'rsatilgan tibbiy xizmat darajasidan kelib chiqib, bizni do'st yoki yaqinlaringizga tavsiya qilasizmi? 0 dan 10 gacha bo'lgan ball bilan baholang.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

2. Iltimos, shifokor qabuliga yozilish jarayonidan qoniqish darajasini ko'rsating:  
juda mamnunman  
qoniqarli  
noroziman  
juda noroziman

3. Tibbiy yordam ko'rsatish darajasiga baho bering:

	juda mamnunman	qoniqarli	noroziman	juda noroziman
Diagnostika o'tkazish jarayonining tezligi				
Dori-darmonlarni buyurishi				

4. Siz hozirda davlat tibbiy sug'urtasi bilan qamrab olinganmisiz?

- Ha
- Yo'q

5. Shifokorni qabuliga kirish uchun qancha vaqt kutdingiz?

- 0-30 minut
- 30-60 minut
- 1 soatdan ko'p

- 2 soatdan ko'p

6. Sizga buyurilgan dori-darmonlarning nojo'ya ta'siri va nojo'ya belgilari haqida sizga ma'lumot berildimi?

- Ha
- Yo'q

7. Tibbiyot muassasamizda davolanish vaqtida quyidagilar sizni qanchalik qoniqtirdi?

	juda mamnunman	qoniqarli	noroziman	juda noroziman
Xodimlar professionalligi				
Muassasada sanitariya va gigiena holati				
Ko'rsatilgan tibbiy yordam				
Shifokorning sizga ajratgan vaqt davomiyligi				
Davolanish jarayonidagi muammolarga shifokor tomonidan e'tibor berish				

8. Sizningcha, muassasa ish soatlari davolanish uchun qulaymi?

- juda ham qulay
- qulay
- menga farqi yo'q
- noqulay
- juda ham noqulay

9. Bizning muassasamizning joylashuvi siz uchun qanchalik qulay?

- juda ham qulay
- qulay
- menga farqi yo'q
- noqulay
- juda ham noqulay

10. Quyidagi parametrlar bo'yicha bizni qanday baholaysiz?

	Juda yahshi	yahshi	O'rta	yomon	Juda yomon
Sizning ma'lumotlaringizni maxfiyligi va shaffofligi bo'yicha bizning yondashishimiz					
Xizmat ko'rsatish sifati					
Sog'lom hayot kechirish uchun berilgan ma'lumotl					

11. Biz taklif qilayotgan barcha tibbiy xizmatlar haqida bilasizmi?

- hamma xizmatlar to'grisida ma'lumotlarni men so'ramasimdan oldin aytib berishdi

- men so'raganimdan keyin aytishdi
  - menga ular haqida aytilmagan
12. Shifokor qabuliga yozilish qanchalik oson bo'ldi?

- juda qiyin
- qiyin
- oson
- juda oson

13. Ko'rsatilgan tibbiy yordam vaqt tezligini qanday baholaysiz?

	Juda qisqa	Qisqa	Uzoq	Juda uzoq
Kutish xonasida o'tkazgan vaqt				
Shifokorning qabulida o'tkazilgan vaqt				
Tahlillarni topshirish uchun kutilgan vaqt				
Tahlil natijalarini kutishga ketgan vaqt				

14. Sizni davolashda ishtirok e'tgan shifokor, hamshira va boshqa tibbiyot xodimlarini qanday baholaysiz?

	Roziman	Qisman roziman	Umuman rozi emasman
Sizni sinchkovlik bilan tinglaydi va sizga tegishli e'tibor qaratadi			
Siz bilmoqchi bo'lgan hamma narsani sizga tushuntiriladi			
Sizga yaxshi munosabatda bo'lishdi va kerakli maslahatlarni berishdi			
Ular o'zaro do'stona munosabatda va bir birlariga yordam berishadi			
Barcha savollaringizga javob berishadi			

15. Muassasa (shifohona) da yaratilgan sharoitlarga qanday baho berasiz?

	Juda yaxshi	Yaxshi	yomon
Shinam va tozaligi			
Muassasa hududida oson va qulay harakatlanish			
Qulaylik va xavfsizlik			

16. Ko'rsatilayotgan xizmatlarimizning narxini qanday baholaysiz?

- O'ta qimmat
- Qimmat
- O'rtacha
- Arzon

17. Muassasamiz (shifoxonamiz)da nima sizga yoqmadi va nimalarni to'g'rilashimiz kerak. (yozib qoldiring)

**Izoh:** savolnoma barcha tibbiyot muassasalarining xizmat ko'rsatish kengligi va yo'nalishlariga qarab ushbu savolnoma misolida ishlab chiqiladi (muassasaning barcha yo'nalishlarini qamrab olinishi kerak), muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Rejali va rejadan tashqari o'rganishlar davomida qo'llaniladi. Savolnoma natijalari o'rganish dalolatnomasi (4-ilova) bilan birgalikda muhokama va tahlil qilinadi va tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Sog'liqni saqlash vazirining 2026-yil

\_\_\_ - apreldagi

\_\_\_\_\_ -son buyrug'iga

6-ilova

### Sifat mezonlarini baholash kartalari NAMUNA

Meningit bilan og'rigan kattalar va bolalarga ko'rsatilayotgan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning sifat mezonlari (MKB-10: A39.0+; A87; G00; G01; G02; G03)

T/r	Sifat mezonlari	Ijrosini baholash	
		Ha	Yo'q
1	Shifoxonaga qabul qilingan vaqtdan boshlab dastlabki 30 minut ichida infeksionist va/yoki nevrolog tomonidan ko'rikdan o'tkazildimi		
2	Glazgo shkalasi bo'yicha koma darajasi baholandimi		
3	Shifoxonaga qabul qilinganidan boshlab dastlabki 15 minut ichida anesteziolog-reanimatolog tomonidan ko'rikdan o'tkazildimi (septik shok yoki miya shishi bo'lgan holatlarda)		
4	Qonning umumiy (kengaytirilgan) tahlili o'tkazildimi		
5	Qonning bioximiyaviy tahlili o'tkazildimi (Mochevina, kreatinin, qand, kaliy, natriy)		
6	Shifoxonaga qabul qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida orqa miya punksiyasi va orqa miya suyuqligini tekshirish amalga oshirildimi (sitoz, oqsil, qand, sitologik tekshirish)		
7	Antibiotiklar va boshqa dori vositalariga sezuvchanligini bakteriologik usul bilan va/yoki qabul qilingan vaqtdan boshlab 1 soatdan kechiktirmasdan polimeraza zanjirli reaksiyasi (PZR) usuli bilan kasallikning <b>qondagi</b> qo'zg'atuvchisi aniqlandimi (antibakterial terapiya boshlashdan oldin)		
8	Antibiotiklar va boshqa dori vositalariga sezuvchanligini bakteriologik usul bilan va/yoki polimeraza zanjirli reaksiyasi (PZR) usuli bilan kasallikning <b>orqa miya suyuqligidagi</b> qo'zg'atuvchisi aniqlandimi		

9	Koagulogramma tahlili o'tkazildimi		
10	Antibakterial dori vositalari bilan davolash o'tkazildimi (bakterial infeksiya aniqlanganda)		
11	Dezintoksiqatsiya maqsadida muolajalar o'tkazildimi		
12	Dinamikada qaytadan orqa miya punksiyasi va orqa miya suyuqligi tekshiruv o'tkazildimi (sitoz, oqsil, qand, sitologik tekshiruv)		
13	Dinamikada antibiotiklar va boshqa dori vositalariga sezuvchanligini bakteriologik usul bilan va/yoki polimeraza zanjirli reaksiyasi (PZR) usuli bilan kasallikning orqa miya suyuqligidagi qo'zg'atuvchisi <b>qaytadan</b> aniqlandimi		
14	Bemorni shifoxonadan chiqarish vaqtida orqa miya suyuqligidagi ko'rsatkichlar me'yorga keldimi		
15	Bemorni shifoxonadan chiqarish vaqtida orqa miya suyuqligidagi kasallik qo'zg'atuvchisini yo'q qilishga erishildimi		
16	Xushning darajasi Glazgo shkalasi bo'yicha 15 ballga yetdimi		

### NAMUNA

Virusli gepatit (jigar komasisiz) bilan og'rikan kattalar va bolalarga ko'rsatilayotgan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning sifat mezonlari (MKB-10: B15.9; B16.1; B16.9; B17.1; B17.2; B17.9; B19.9)

T/r	Sifat mezonlari	Ijrosini baholash	
		Ha	Yo'q
1	Shifoxonaga qabul qilingan vaqtdan boshlab dastlabki 2 soat ichida infeksiyotomonidan ko'rikdan o'tkazildimi		
2	Qonning bioximiyaviy tahlili o'tkazildimi (alanintransferaza ALT, aspartataminotransferaza AST, gamma-glutamiltanspeptidaza, bilirubin, umumiy oqsil, albumin, qand)		
3	Protrombin indeksi aniqlandimi yoki protrombin indeksi 70% dan kam bo'lganida koagulogramma tahlili o'tkazildimi		
4	Gepatit A va Ye ni virus markerlari aniqlandimi va/yoki gepatit V va S ni immunoferment (IFA), immunoxemilyuminessent (IXLA) yoki polimeraza zanjirli reaksiya (PZR) usullarida aniqlandimi		
5	Infuzion terapiya o'tkazildimi (qarshi ko'rsatma mavjud bo'lmagan)		
6	Qorin bo'shlig'i a'zolarini ultratovush (UTT) yoki kompyuter tomografiya (KT) yoki magnitno-rezonans tomografiya (MRT) tekshiruvlaridan o'tkazildimi		

7	Bemorni shifoxonadan chiqarish vaqtida alaninaminotransferaza (ALT) miqdorini kamaytirishga erishildimi		
8	Bemorni shifoxonadan chiqarish vaqtida qondagi bilirubin miqdori 40 mkmol/l dan yuqori darajada emasmi		
9	Bemorni shifoxonadan chiqarish vaqtida protorombin vaqti 80% dan kam bo'lmagan darajaga yetdimi		

### NAMUNA

O'tkir koronar sindromda ko'rsatilayotgan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning sifat mezonlari (MKB-10: I20.0; I21 - I24 )

T/r	Sifat mezonlari	Ijrosini baholash	
		Ha	Yo'q
1	Shifoxonaga qabul qilingan vaqtdan boshlab dastlabki 5 minut ichida kardiolog tomonidan ko'rikdan o'tkazildimi		
2	Shifoxonaga qabul qilingan vaqtdan boshlab dastlabki 10 minut ichida elektrokardiografiya (EKG) tekshiruvi o'tkazildimi		
3	Qonda troponin I, T miqdori aniqlandimi va/yoki qonda kreatinkinaza miqdori va aktivlik darajasi aniqlandimi		
4	Shifoxonaga qabul qilingan vaqtdan boshlab 30 minut ichida dori vositalari bilan trombolizis terapiya o'tkazildimi (agar shifoxonagacha bo'lgan bosqisda (103) qilinmagan bo'lsa)		
5	Trombotsitlar agregatsiyasi ingibitorlari bilan terapiya o'tkazilganmi		
6	Asetilsalitsil kislota bilan terapiya o'tkazilganmi		
7	Gipolipidemik dori vositalari bilan terapiya o'tkazilganmi		
8	Trombolitik terapiya boshlanishidan oldin va undan so'ng 1 soat ichida elektrokardiografiya (EKG) tekshiruvi o'tkazilganmi (agar trombolitik terapiya o'tkazilgan bo'lsa)		